

BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY O'QUVCHI SHAXSINING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI

N.A. Kozimova

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada asosiy muammolarimizdan biri: ta'lim muassasalarimizda bugungi zamonaviy o'quvchi shaxsi va o'quvchi o'qituvchi o'rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni oldini olish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologik menlik, informatsion shaxs, oilaviy muhit, psixologik salomatlik, adekvat munosabat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об одной из наших основных проблем: способах предотвращения конфликтов между личностью современного студента и студентом-преподавателем в наших образовательных учреждениях.

ABSTRACT

This article deals with one of our main problems: ways to prevent conflicts between the personality of today's modern student and the student-teacher in our educational institutions.

Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Sh. Mirziyoyev

Bugungi ta'lim tizimidagi jadal intellektual o'zgarishlar ta'lim subyektlariga turlicha ta'sir ko'rsatyapti. Nimaga deganda, ta'lim subyektlari bo'layotgan hamma yangiliklar, hamma o'zgarishlarga ham psixologik, intellektual tayyor emaslar. Ayniqsa, ta'limning asosiy ishtirokchisi—o'quvchilar bo'layotgan o'zgarishlarni osonlik bilan qabul qilishmaydi. Bunga turli omillarni sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. Avvalo, bugungi zamonaviy o'quvchi shaxsini kurib chiqadigan bo'lsak:

- ✓ bugungi zamonaviy o'quvchi informatsion bolalar
- ✓ o'quvchida agressivlik darajasi yuqori
- ✓ o'quvchi o'zining menligini taniydigan va talab qiladigan
- ✓ o'quvchining qiziqish doirasi keng

- ✓ o'quvchining intilishi ko'proq reallikdan ko'ra noreallikka
- ✓ zamonaviy o'quvchi juda tezkor va beqaror
- ✓ zamonaviy o'quvchi o'z mustaqil fikriga ega
- ✓ zamonaviy o'quvchining yo'nalgan sohasi IT

Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, bugungi zamonaviy o'quvchilarning ham ijobiy va salbiy xususiyatlarini kurishimiz mumkin. Ijobiy tomomlaridan bugungi asr bolalari informatsiyalarni, yangiliklarni shu qadar tezkorlik bilan o'zlashtirishyaptiki, ba'zida soha mutaxassislarni ham ortda qoldirishadi. Maktablarimizda salohiyatli, intellekti yuqori o'quvchilar juda ko'p. Shunga mos tarzda biz ham, ya'ni ota – onalar, o'qituvchilar shu salohiyatga teng bo'lishimiz kerak. Ayniqsa, bugungi ota – onalar agarda farzandining salohiyatiga mos bo'lmasa, farzandini yo'qotib qo'yishi mumkin. Nimaga deganda, bola yoshligidan ota – onasini ideal deb biladi. Katta bo'lgan sari esa ota – onasiga ideal deb qarash pasayib boradi. Bugungi zamonaviy bolalardagi ushbu qarash ota – onalar va bola o'rtasidagi turli ziddiyatlarni keltirib chiqaryapti. Agar siz bolangiz har bir savoliga kerakli javobni bera olmasangiz, u holda bola savollariga javobni boshqa yerdan qidira boshlaydi va bu javoblar har doim ham to'g'ri javob bo'lmasligi mumkin. Ta'lim muassasida ham shu kabi muammolar kuzatiladi. Hozirda zamonaviy o'quvchini oddiy yoki oldingi ma'lumotlar bilan qiziqtirish juda qiyin. O'qituvchi o'quvchini eng yangi inovatsion usullardan foydalanib, bugungi hayotimizda qo'llay oladigan ma'lumotlar bilan qiziqtirishi darkor. O'quvchilar bilan psixologik tadqiqot va so'rovnomalarni olib borilganda, o'z yo'nalishini tanlagan ayrim o'quvchilar boshqa yo'nalishlarni o'qimay qo'yadi. Masalan, mening yo'nalishim ingliz tili. Shu yo'nalishda OTMda o'qimoqchiman. Menga kimyo, fizika fanlari nima uchun kerak- degan fikrlar o'quvchilarda juda ko'plab uchraydi. Shu kabi fikrlarga o'qituvchilar asosli javob topib bera olishmasa, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan ham, ta'lim muassasasiga nisbatan ham fikri ijobiy bo'lmasligi mumkin. O'qituvchi bugungi zamonaviy o'quvchining o'y – fikrlari, qarashlaridan xabardor bo'lmasa, o'quvchi oldida kasbiy kompetentligi tushushi mumkin. Bugungi zamonaviy o'quvchi qanday kiyinyapti, nimalarga qiziqadi, qanday o'y – fikrlarda va shu kabi xususiyatlarni o'rganish o'quvchi bilan to'g'ri munosabat qilish va ularni tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy o'quvchining psixologik, ijtimoiy aspektlarini o'rganadigan bo'lsak, har bir muammoning yechimini izlashda birinchi navbatda uning ildizini topishimiz zarur. Bolaning tarbiyasidagi har bir kamchilik bu avvalo ota – onaning kamchiligi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bola har doim uyida ota - onasining aytgan so'zlarini emas, balki oila a'zolarining qilayotgan hatti – harakatlarini tarbiya sifatida qabul qiladi. Shu sababli, avvalo biz ota – onalar qilayotgan har bir hatti –

harakatlarimizga, atrofimizdagi insonlarga qilayotgan munosabatimizga juda e'tiborli bo'lishimiz darkor. Muammoning ildizi borib yana bilim – tushunchalarga taqaladi. Chunki, biror – bir ma'lumotni tahlil qilish uchun, bizda u haqida yetarlicha bilim bo'lishi yoki insonda keng dunyoqarash bo'lishi kerak. Insonning imkoniyatlari cheksizdir. Faqatgina o'zi ularni to'g'ri anglay olsagina, qobiliyatlaridan samarali foydalana oladi. Har bir uyning poydevori mustahkam bo'lsa, u uzoq vaqt xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bolalarga ham to'g'ri tarbiya berib borsak, mustahkam psixologik immunitetni shakllantirsak, jamiyatimizga foydasi tegadigan komil farzandlar bo'lib voyaga yetishadi. Chunki, bola siz sezmagan holda har bir hatti – harakatingizdan o'ziga xos xulosalar ya'ni tarbiyani oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman – degan so'zlari har bir ota – ona uchun muhim fikr bo'lishi darkor. So'z oxirida shuni aytish joizki, demak biz ota – onalar o'zgarsak - tarbiyali, ilmi va salohiyatli bo'lsak, farzandlarimiz ham shu yo'ldan ketishadi. Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi.” – degan maqol bejizga aytilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M. Mirziyoyev – Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. O'zbekiston, 2016
2. Sh.M. Mirziyoyev – Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. T. “Tasvir”, 2021 – 36 b.
3. G'oziyev E. – Umumiy psixologiya. T. Sharq, 2001.
4. Shoumarov B. Oila psixologiyasi. -T. Sharq, 2001. 272 b.
5. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU, 1999-152
6. Mirenskiy B.A. Oila va O'smir. - T.O'qituvchi , 1991.
7. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. –T.: 1999.-27 b.
8. Internet saytlari: ziyonet.uz, gov.uz, lex.uz